

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI**



**F A L S A F A**  
**FANIDAN**  
**SILLABUS**  
**(Sirtqi ta'lim 1-kurs talabalari uchun)**

<b>Bilim sohasi:</b>	<b>600 000</b> – Axborot kommunikatsiya texnologiyalari <b>1000 000</b> – Xizmatlar
<b>Ta'lim sohasi:</b>	<b>610 000</b> – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari <b>1010 000</b> – Xizmat ko'rsatish sohasi
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	<b>60610100</b> – Axborot tizimlari va texnologiyalari <b>61010100</b> – Turizm va mehmondo'stlik

**Termiz-2024**



## Modul / FAN SILLABUSI

### PEDAGOGIKA VA IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI



**Ta'lim yo'nalishi:** **60610100** – Axborot tizimlari va texnologiyalari  
**61010100** – Turizm va mehmondo'stlik

<b>Fan nomi:</b>	Falsafa
<b>Fan turi:</b>	Majburiy
<b>Fan kodi:</b>	FAL1204
<b>Yil:</b>	2024-2025
<b>Semestr:</b>	2
<b>Ta'lim shakli:</b>	Kunduzgi
<b>Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:</b>	120
Ma'ruza	14
Amaliy mashg'ulotlar	–
Laboratoriya mashg'ulotlari	–
Seminar	4
Mustaqil ta'lim	102
<b>Kredit miqdori:</b>	4
<b>Baholash shakli:</b>	Imtihon
<b>Fan tili:</b>	O'zbek

#### I.Fanning mazmuni. (FM)

<b>FM1</b>	<p>Falsafa fan sifatida olamdagi voqea-hodisalarning mohiyatini tushunish va ularga munosabat bildirish, insonning o'z hayoti ma'nosi va maqsadini bilish va tanqidiy fikrlash mahoratini shakllantiradi. Falsafa dunyoqarash sifatida “so'zlar, so'zlar va yana so'zlar” orqali inson ongiga ta'sir etadi, unga fikrlash va yo'l tanlash mahoratini o'rgatadi.</p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarning oliy ta'lim tizimida egallagan dunyoviy, falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlardan ijtimoiy – ma'naviy hayotda maqsadli foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.</p>
------------	--

	<p><b>Fanning vazifalari</b> – talaba yoshlarda falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlarni shakllantirish, falsafiy, tabiiy-ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyatini, texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyusiyasi, milliy qadriyatlar, madaniyat va ommaviy madaniyatning o‘zaro aloqasi va farqi, dunyoni bilish, haqiqatni anglashda amaliyot va faoliyat uyg‘unligini ta’minlashning ahamiyati, tog‘ri fikrning ijobiy maqsadlarga erishishdagi o‘rni, global korrupsiyaning sabablari va shakllarini bilish, ularga qarshi kurashish, dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlar jarayonida to‘liq namoyon qilish, ijtimoiy va professional mas’uliyatni va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish tuyg‘usini shakllantirishdan iborat.</p>
--	---

<b>II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) (FN)</b>	
<i>Bilimlar jixatidan:</i>	
<b>TN1</b>	dunyo haqidagi qadimgi va zamonaviy falsafiy bilimlarni o‘rganish asosida professional faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, davlat siyosatiga dahldorlik tuyg‘usini shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, Qadimgi, O‘rta asrlar, Yangi va eng Yangi davr Sharq va G‘arb falsafasining asosiy g‘oyalari, G‘arb renessansi shakllanishiga O‘rta asr Sharq falsafasining ta’siri, Yangi va eng yangi davr falsafasining muhim xususiyatlari bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lishi;
<b>TN2</b>	ontologiyaning yo‘nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyot ontologiyasining ijtimoiy ahamiyati, fizik va falsafiy ontologiyaning o‘zaro aloqasi va farqlari, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o‘rni, ong ontologiyasining transformasiyasi, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta’lim va tarbiya haqida bilishi va ulardan foydalana olishi;
<b>TN3</b>	Internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallash; o‘zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish, bakalavriatning mos yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish, kiberterrorizm, kiberzo‘ravonlik (cyberbullying)ga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo‘lishi, globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillari, korrupsiyaning global ma’naviy inqiroz oqibati sifatida barqaror taraqqiyotga salbiy ta’sirini bilish, unga qarshi kurashda dahldorlik tuyg‘usi shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni prognozlash, jismoniy va ruhiy sog‘lik, tafakkur xavfsizligini ta’minlash, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, tanqidiy tafakkur imkoniyatlaridan jamiyat barqarorligini ta’minlash, ijtimoiy nazorat va shaxsiy mas’uliyatni oshirish maqsadlarida foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

	<i>Ko'nikmalar jixatidan:</i>
<b>TN4</b>	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish
<b>TN5</b>	tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish
<b>TN6</b>	o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish
<b>TN7</b>	yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

<b>Fan mazmuni</b>		
<b>Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)</b>		
<b>M1</b>	<b>1-MODUL. FALSAFA</b> Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli	2
<b>M2</b>	Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli	
<b>M3</b>	G'arb falsafasining ustuvor yo`nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri	
<b>M4</b>	Borliq falsafasi (Ontologiya)	2
<b>M5</b>	Rivojlanish falsafasi	2
<b>M6</b>	Bilish falsafasi	
<b>M7</b>	Mantiq	
<b>M8</b>	Jamiyat falsafasi	2
<b>M9</b>	Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat	4
<b>M10</b>	Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)	
<b>M11</b>	Qadriyatlar falsafasi	
<b>M12</b>	Etika	
<b>M13</b>	Estetika	2
<b>M14</b>	<b>2-MODUL. GLOBAL JARAYONLAR DIALEKTIKASI</b> Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi	
<b>M15</b>	Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlar va unga qarshi kurash Mexanizmlari	
<b>Jami:</b>		<b>14 soat</b>
<b>Mashg'ulotlar shakli: seminar mashg'ulot (S)</b>		
<b>S1</b>	Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli	2
<b>S2</b>	Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli	
<b>S3</b>	G'arb falsafasining ustuvor yo`nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri	
<b>S4</b>	Borliq falsafasi (Ontologiya)	

<b>S5</b>	Rivojlanish falsafasi	2	
<b>S6</b>	Bilish falsafasi		
<b>S7</b>	Mantiq		
<b>S8</b>	Jamiyat falsafasi		
<b>S9</b>	Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat		
<b>S10</b>	Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)		
<b>S11</b>	Qadriyatlar falsafasi		
<b>S12</b>	Etika		
<b>S13</b>	Estetika		
<b>S14</b>	Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi		
<b>S15</b>	Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlar va unga qarshi kurash Mexanizmlari		
<b>Jami:</b>			<b>4 soat</b>

<b>Mustaqil ta'lim (MT)</b>			
<b>№</b>	<b>Topshiriqlar va bajaralish tartibi</b>	<b>Muddati/ soat</b>	<b>Ball/ O'tish balli</b>
<b>JN uchun. I-topshiriq. Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish</b>			
<b>MT1</b>	Fan yuzasidan berilgan seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uy vazifalarini bajarish	Semestr davomida <b>24soat</b>	<b>5/3</b>
<b>MT2</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Falsafaning mohiyatiga oid Sharq va G'arb mutafakkirlari ta'riflarini tasniflash va ular bo'yicha prezentatsiya tayyorlash.</li> <li>2. Senekaning "Lutsiliyga axloqiy xatlari" asarini o'qish va shu xatlar asosida talabalarning o'z hayoti va faoliyatiga baho berilgan esse tayyorlash</li> <li>3. Abu Nasr Forobiy va G'azzoliyning falsafa ilmiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish (Forobiyning "Siyosat falsafasi" va G'azzoliyning "Kimyoi saodat" asarlari asosida).</li> <li>4. Noklassik ontologiyaning yo'nalishlari va mohiyati bo'yicha esse tayyorlash (M.Xaydeggerning Borliq va vaqt asari asosida)</li> <li>5. "Aristotel, Forobiy va Kant ontologiyasida kategoriyalarning tasnifi" mavzusida esse tayyorlash, (krossvord tayyorlash).8</li> <li>6. A.Fitratning "Oila asari"dagi oila qurish tartiblari va farzand tarbiyasiga oid g'oyalar bo'yicha esse tayyorlash.</li> </ol>	Semestr davomida <b>26 soat</b>	<b>5/3</b>

	<p>7. A.Fitratning “Rahbari najot” risolasidagi “Baxtsiz odamlarning ikki toifasi”ga oid qarashlari bo‘yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o‘tkazish.</p> <p>8. Avloniyning “Madaniyat to‘lqinlari” maqolasi va E.Toﬀlerning “Uchinchi to‘lqin” asarini qiyosiy tahlil etish, prezentatsiya tayyorlash.</p>		
<b>ON uchun. II-topshiriq:</b>			
<b>MT3</b>	<p>9. “Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari” mavzusida esse tayyorlash (A.Toynbi, E.Toﬀler asarlarining qiyosiy tahlili asosida).</p> <p>10. “Dunyoni estetik idrok etishda badiiy asarlarning ahamiyati” mavzusida esse tayyorlash.</p> <p>11. “Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar” mavzusida videorolik tayyorlash.</p> <p>12. “Dunyo xalqlari miflari” haqida krossvord tayyorlash.</p> <p>13. J.Rumiyning “Ovchi va lochin” rivoyatining mohiyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tahlil etish (Ichindagi ichindadir asari asosida).</p> <p>14. “Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari” mavzusida esse tayyorlash.</p> <p>15. “Koevolyutsiya va environmentalizm dialektikasi” mavzusida esse tayyorlash (O‘zbekistonga qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o‘simliklar haqida ma’lumotlarni aniqlash) O‘zbekiston tabiati mavzusida krossvord tayyorlash.</p> <p>16. M.Behbudiyning “Yoshlarga murojaat” va “Muhtaram yoshlarga murojaat” maqolalarini tahlil etish va esse tayyorlash.Mavzular doirasida doklat va videorolik tayyorlash</p>	<b>3-8 hafta 26 soat</b>	<b>10/6</b>
<b>MT4</b>	<p>17. Makiavellining “Xukmdor” asari bo‘yicha taqdimot tayyorlash.</p> <p>18. G‘azzoliyning “Tavba” asarini tahlil etish va talabalarning o‘z faoliyatida mavjud ofatlarni aniqlash va o‘ziga baho beruvchi esse tayyorlash.</p> <p>19. Ibn Tufayl va Ibn Sinoning “Xay ibn Yakzon o‘g‘li” risolasini qiyosiy tahlil etish va esse tayyorlash.</p> <p>20. “Korrupsiyaning mohiyati va uning oqibatlari” mavzusida viktorina o‘tkazish, video roliklar tanlovini tashkil etish.</p> <p>21.“O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari” mavzusida esse tayyorlash.</p>	<b>9-14 hafta 26 soat</b>	<b>5/3</b>

	22. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari bo’yicha jamiyat boshqaruviga oid g’oyalarni tahlil etish va esse tayyorlash 23. S.Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to’qnashuvi” asarini o’qish va mohiyati bo’yicha esse tayyorlash		
<b>YN uchun. III-topshiriq:</b>			
<b>MT5</b>	Yakuniy nazorat savollarining kamida 50 foiz qismi mustaqil ta’lim mavzularidan tuziladi		<b>25/15</b>
<b>Jami:</b>		<b>102</b>	<b>50/30</b>

Mustaqil ta’lim topshiriqlarini belgilangan muddatda topshirmagan (kech bajargan) talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlari qabul qilinmaydi va ushbu mustaqil ta’lim uchun ajratilgan ballar qo’yilmaydi. Maslahat olish uchun aloqa dots. Tursunov Muxiddin Boltayevich (90) 520-65-61

<b>Mustaqil ta’lim (MT)</b>		<b>102</b>
<b>1</b>	Seminar va amaliy mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish va uy ishlarini bajarish	<b>22 soat</b>
<b>2.</b>	Vaziyatli masalalar (kazuslar) tuzish	<b>26 soat</b>
<b>3.</b>	Berilgan manbalarni tarjima qilish	<b>26 soat</b>
<b>4.</b>	Falsafaga oid berilgan mavzu bo’yicha esse yozish	<b>14 soat</b>
<b>5.</b>	Anjumanga tezis tayyorlash	<b>14 soat</b>

<b>Asosiy adabiyotlar</b>	
1	Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021.667-b.
2	Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa, o’quv qo’llanmasi – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b
3	Saifnazarov I., Muxtorov A., Ernazarov D, Usmonov F. Falsafa, o’quv qo’llanmasi – Toshkent: Innovasion rivojlanish nashriyot –matbaa uyi, 2021. – 424 b.
4	Madaeva Sh., Shermuhamedova N.va boshqalar Falsafa, o’quv qo’llanmasi. – Toshkent: 2019
5	Чумаков А.Н. Философия, учебник.– М.: INFRA. 2018.– 320 с
<b>Qo’shimcha adabiyotlar</b>	
6	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O’zbekiston, 2022. – 416 b.
7	Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik davlatini birgalikda quramiz. –10 Toshkent: O’zbekiston, 2021

8	Muxammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. – Toshkent: Universitet, 2017.
9	Ўзбекистоннинг коррупцияга қарши кураш стратегияси/Алиев Б, Мухтаров А., Норов Т., / ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2022. –320 б.
10	Nishonova O.Dj. O'zbek etnomadaniyatining estetik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2023
11	Раматов Ж. Лойко А., Жоголь Н., Кушаков Ф. Основные проблемы философии. –Ташкент: 2022
12	Саифназаров И. Мухтаров А., Абдуллаханова Г, Алиматова Н., ЭрназаровД, Философия. Учебник (для вузов экономических специальностей). – Ташкент: Innovation rivojlanish nashriyoti – matbaa uyi. 2021. – 424 с.
13	Xakimov N.X. Amriddinova D. Jadidchilik ta`limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati.–Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
14	Sharipov M. Mantiq. – Toshkent: Universitet, 2003
15	Shermuxeamedova N.A. Falsafaga kirish –Toshkent: Innovasiya –Ziyo, 2024
	<p><b>Elektron-axborot manbalari</b></p> <p><a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></p> <p><a href="http://www.edu.ru">www.edu.ru</a></p> <p><a href="http://www.google.uz">www.google.uz</a></p> <p><a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></p>

**Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda  
quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:**

- **a) 5 baxo (90-100 ball) olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**
  - fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritib olsa;
  - fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
  - fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
  - fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
  - berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
  - konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
  - mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
  - fanga tegishli qonunlar va boshqa meyoriy-xuquqiy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
  - fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
  - tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa;
  
- **b) 4 baxo (70-89 ball) olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**
  - fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
  - fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
  - fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;
  - fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
  - fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
  - fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
  - fanga tegishli qonunlar va boshqa meyoriy xujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.
  
- **c) 3 baxo (60-69 ball) olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**
  - fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
  - fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;
  - bayon qilish ravon bo'lmasa;
  - fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
  - fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.
  
- **d) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baxo (0-59 ball) bilan baholanishi mumkin:**
  - fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
  - fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
  - fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;

- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

### Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

<b>Muallif:</b>	dotsent Tursunov Muhiddin Boltayevich
<b>E-mail:</b>	
<b>Tashkilot:</b>	Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasini
<b>Taqrizchilar:</b>	Falsafa fanlari doktori, professor E.Bobomurodov (TerDU) Falsafa fanlari nomzodi, dotsent U.Mustafoev (TerDU)

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil \_\_\_avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasining 2024 yil \_\_\_avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:  dots. Z.To'rayev

Fakultet dekani: dots. S.Bozorov

Kafedra mudiri: dots v.b. S.Eshqurbonov

Tuzuvchi: dots. M.Tursunov



